

7. Tarixiy-mantiqiy ketma-ketlik (moslik) NOTO‘G‘RI berilgan javobni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

- A) Fransiya – Lasko g‘ori – eng qadimgi dafn marosimlari
- B) O‘zbekiston – Teshiktosh g‘ori – qushlarning suyaklari
- C) Toshkent vohasi – Qo‘shilish – mezolit davriga oid
- D) Surxondaryo viloyati – Sopollitepa – bronza davriga oid

8. Atama va uning ma‘nosi o‘zaro mos bo‘lganlarini toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

№	Atama	Ma‘nosi
1.	Neolit	Mis-tosh davri
2.	Paleolit	Qadimgi tosh davri
3.	Mezolit	O‘rta tosh davri
4.	Eneolit	Yangi tosh davri

- A) 2,3 B) 1,2 C) 3,4 D) 1,4

9. Quyidagi kashfiyot (ixtiro)lardan mezolit (a) va neolit (b) davriga oid bo‘lganlarini toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

- A) a-sun‘iy olov, b-tabiiy olov
- B) a-kulolchilik o‘choqlari; b-kulolchilik charxi
- C) a- taqinchoqlar, b-o‘q-yoy yasash
- D) a-hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish, b-o‘troq tumush tarzi

10. Quyidagi ma‘lumotlarni tahlil qilib, yakuniy xulosani toping. (Mulohaza –5,5 ball)

	Voqea	Natija
1	Jak-Fransua Shampolyon jahonshumul ahamiyatga molik kashfiyot qildi	Piramidalar devorlaridagi bitiklar ko‘p asrlik jimjitlikdan so‘ng “tilga kirdi”
2	Qadimgi podsholik davri fir‘avnlari Nubiya va Liviyaga yurish qildi	Shaharlarni taladi, asirlar, chorva mollari va boshqa boyliklarni egallab oldi
3	Giksoslar Yuqori Misrni bosib oldi	Shaharlar va qishloqlarni ayovsiz taladi hamda odamlarni asirlikka haydab ketdi

- A) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri
- B) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri
- C) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri
- D) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri

